BARQAROR RIVOJLANISH MEZONLARINING HUDUDIY JIHATLARI TAHLILI

ANALYSIS OF REGIONAL ASPECTS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT CRITERIA

Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich
Urganch Davlat Universiteti (UrDU) Stajor o‘qtuvchisi

Dunyouz@mail.ru

+998 99 537 75 77

Annotatsiya: Maqolada mintaqa barqaror rivojlanish mezon va ko‘rsatkichlari bo‘yicha qarashlar tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalariga muvofiq tanlangan ko‘rsatkichlar asosida mintaqa va uning hududlaridagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik mezonlar baholangan. Natijalarga muvofiq mintaqa va uning hududlarini barqaror rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish; sanoat; qurilish; xizmatlar sohasi; investisiya; ish bilan bandlik; mintaqa.

Аннотатсия: В статье систематизированы взгляды на критерии и показатели устойчивого развития региона. Экономические, социальные и экологические критерии региона и его территорий оценивались на основе показателей, отобранных по результатам исследования. По результатам разработаны предложения по устойчивому развитию региона и его территорий.

Ключевые слова: устойчивое развитие; промышленность; строительство; сектор услуг; инвестиции; занятость; регион.

Abstract: This article systematizes views on the criteria and indicators for sustainable regional development. The economic, social, and environmental criteria of the region and its territories were assessed based on indicators selected from the research. Based on these findings, proposals for the sustainable development of the region and its territories were developed.

Key words: sustainable development; industry; construction; services sector; investments; employment; region.

Mamlakat iqtisodiyoti bir butun holatda mintaqalar hisobiga shakllanadi. Bu esa, barcha sohalar qatori iqtisodiyot soha va tarmoqlari bo‘yicha ham mintaqalarda ijobiy holat ta’minlanishini talab qiladi. Bunda soha va tarmoqlarni barqaror rivojlanishiga erishish bosh maqsad sanaladi. Shu bois, mintaqa iqtisodiyotini uzoq muddatli rivojlanishida uning asosiy ko‘rsatkichlarini barqaror darajasini ta’minlashga alohida e’tibor qaratamiz. Mazkur jarayonni tadqiq qilishda joriy vqatdagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni holatini baholaymiz. Buning uchun esa, mintaqa darajasida barqaror rivojlanish mezonlarini aniqlab olishimiz zarur bo‘ladi. Buning uchun ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni qarab o‘tamiz.

Jumladan, aksariyat tadqiqotlarda mintaqalar barqaror rivojlanish mezonlarini uchga bo‘lish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi[1]: atrof-muhit barqarorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar; iqtisodiyot barqarorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar; ijtimoiy sohaning barqarorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar.

Demak, mintaqa barqaror rivojlanishini atroflicha o‘rganishda mezonlarini chuqur tahlil etishimiz zarur ekan. Ya’ni, umumiy mezonlargina emas, balki uning tarkibiy tuzilishi hamda aniq ko‘rsatkichlarini ham tadqiq qilamiz. Bu esa, mintaqaning barqarorlik ko‘rsatkichlarini aniq baholash imkonini beradi. Shuningdek, har bir ko‘rsatkich doirasida aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishga,

[1] Теоретические концепции устойчивого развития региона // https://ecogosfond.kz/wp-content/uploads/2019/04/206.pdf.

mintaqaning ustuvor soha hamda tarmoqlarini aniqlashga va umumiy holda o‘sish nuqtalarini asoslashga erishamiz. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar zamirida ko‘plab olimlar hamda xalqaro tashkilotlarning izlanish natijalari mavjud. Shu bois, biz ular ichidan bir qator natijalarni ko‘rib o‘tamiz.

BMTning Bosh assambleyasi tomonidan 2015 yilda “Bizning olamimizning o‘zgarishi: 2030 yilgacha bo‘lgan davr uchun barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi” deb nomlangan dasturiy hujjat qabul qilingan. Unga ko‘ra 17 ta “Barqaror rivojlanish maqsadlari” keltirib o‘tilgan. Ular: 1) qashshoqlikni yo‘qotish; 2) ochlikni yo‘qotish; 3) salomatlik va farovonlik; 4) sifatli ta’lim; 5) gender tengligi; 6) toza suv va sanitariya; 7) yashil energiya; 8) munosib ish joyi va iqtisodiy o‘sish; 9) sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma; 10) tengsizlikni kamaytirish; 11) barqaror shaharlar va aholi punktlari; 12) mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish; 13) iqlim o‘zgarishi bilan kurash; 14) dengiz ekotizimlarini saqlash; 15) quruqlik ekotizimlarini saqlash; 16) tinchlik, huquqni himoya qilish va samarali institutlar; 17) barqaror rivojlanish manfaatlaridagi sherikchilik[2].

Mintaqa barqaror rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiritilgan: barqaror moliyaviy natijalar; aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan asosiy kapitalga investisiyalar; mintaqa iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investisiyalar; aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan yalpi hududiy mahsulot. Shuningdek, mintaqa barqarorligining yordamchi ko‘rsatkichlariga esa quyidagilar kiritilgan: avtomobil transportida yuk tashish; qurilish sohasida bajarilgan ishlar hajmi; har 10000 kishiga to‘g‘ri keladigan oliy ta’limdagi talabalar soni. Shuningdek, hayot sifatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar esa quyidagilarni o‘z ichiga olgan: asfaltlangan jamoat yo‘llarining zichligi; aholi jon boshiga pullik xizmatlar hajmi; aholi jon boshiga

[2] Холматов С.Х. Барқарор ривожланиш индикаторлари ва қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш тушунчалари таҳлили // https://cdn.uza.uz/2024/01/12/09/33/4AnX4ja2Uw4P9o8xHk0JCi0jfckTr2qQ.pdf.

chakana savdo aylanmasi; har 10000 kishiga to‘g‘ri keladigan shifokorlar soni; har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan kasalxona o‘rinlari soni[3].

Fikrimizcha, mazkur tadqiqotda ko‘rsatkichlar mintaqa iqtisodiyoti uchun mos ravishda tanlangan bo‘lsada, ularni tasniflashda ikki jihatga e’tibor qaratish zarur. Birinchi mezonda asosiy ko‘rsatkichlarni hisobga olish lozim bo‘ladi. Bunda, aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan YAHM, investisiya, sanoat, xizmat ko‘rsatish, qurilish hajmini o‘rganishimiz zarur bo‘ladi. Ikkinchi mezon zamirida esa ijtimoiy ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratish zarur. Ya’ni, har 1000 nafar aholiga to‘g‘ri kelgan talabalar soni, shifokorlar soni, shifoxona o‘rinlari soni kabilarni e’tiborga olishimiz hamda o‘rganishimiz zarur. Shuningdek, mavjud statistik ko‘rsatkichlar asosida ijtimoiy hamda ishlab chiqarish infratuzilmasini ham aholi jon boshiga hisoblab tadqiq qilish zarur bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, bir qator mamlakatlar tajribasida mintaqa iqtisodiy barqarorligini an’anaviy tarzda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan tasniflash ilgari surilgan.

Jumladan, Rossiya mintaqalari rivojlanishining barqarorligini baholash uchun tabiiy, ekologik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar tanlab olingan. Ular: aholi jon boshiga yalpi asosiy kapitalni shakllantirish, million rubl; aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi, ming rubl; aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari hajmi, million rubl; YAIMga nisbatan byudjet taqchilligi (profisit) ulushi, %; asosiy kapitalga investisiyalarning YAIMga nisbati, %; aholi jon boshiga tashqi savdo aylanmasi hajmi, million AQSH dollari; 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan tadqiqot va ishlanmalar bilan shug‘ullanadigan xodimlar soni; YAIMdagi tadqiqot va ishlanmalarga ichki xarajatlarning ulushi, %; 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalari soni;

[3] Магомедова М.М., Курбанова У.А.-И., Дахдуева К.Д. Концептуальные основы оценки и моделирования устойчивого развития региона как эколого-социально-экономической системы (на примере Республики Дагестан) // Юг России: экология, развитие. 2021. Т.16, N3. С. 191-199. DOI:10.18470/1992-1098-2021-3 191-199.

tashkilotlarning innovasion faoliyati, %; texnologik innovatsiyalarga qilingan xarajatlarning YAIMdagi ulushi, %; jo‘natilgan tovarlar, ishlar, xizmatlarning umumiy hajmidagi innovasion tovarlar, ishlar, xizmatlarning ulushi, %; stasionar manbalardan atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi, ming tonna; stasionar manbalardan havo ifloslantiruvchi moddalarining ushlanishi, ming tonna; o‘rmon yerlari va o‘rmonlar joylashgan boshqa toifadagi yerlarning maydoni, ming gektar; o‘rtacha jon boshiga daromadning yashash minimumiga nisbati; o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi, yil; fond koeffisiyenti; aholi jon boshiga turar-joy binolarining umumiy maydoni (yil oxirida), m2; 100000 aholiga ro‘yxatga olingan jinoyatlar soni; fuqarolarga uy-joy va kommunal xizmatlar uchun ijtimoiy yordam ko‘rsatish uchun ajratilgan mablag‘lar miqdori, million rubl; 10000 kishiga to‘g‘ri keladigan bakalavr, magistratura dasturlarida tahsil olayotgan talabalar soni; moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni; xorijiy kapital ishtirokidagi tashkilotlarning aylanmasi, milliard rubl; AKT xarajatlari, million rubl; umumiy davlat masalalariga sarflangan xarajatlar ulushi, %; milliy iqtisodiyotga sarflangan xarajatlar ulushi, %; uy-joy-kommunal xizmatlarga sarflangan xarajatlar ulushi, %; ijtimoiy va madaniy tadbirlarga sarflangan xarajatlar ulushi, %[4]. Shuningdek, boshqa bir tadqiqot ishida ham mintaqalar va ularning soha hamda tarmoqlari barqaror rivojlanishini iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik mezonlar orqali tasniflash ilgari surilgan[5].

Demak, mintaqa darajasida barqaror rivojlanish tahlil etilganda, asosiy e’tiborni uch mezonga, ya’ni iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik masalalarga qaratamiz. Bunda, iqtisodiy mezon zamirida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan investisiyalar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish hamda xizmatlar sohasini tadqiq

[4] Вдовин С.М., Гуськова Н.Д., Неретина Е.А., Иванова И.А. Прогнозирование устойчивости развития региона на основе экономико-математического моделирования // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. №9, 2016. С. 8–27.

[5] Индекс производственного потенциала для проведения обоснованной политики // Конференция Организации Объединенных Наций по торговле и развитию.Женева, 19–30 июня 2023 года.

etamiz. Shu bilan birga, ijtimoiy mezonlar zamrida esa aholi daromadlari hamda uning o‘zgarishi, ish bilan bandlik darajasining o‘sishi hamda ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganamiz. Ekologik mezonlar esa atrof-muhit va uning iqtisodiyotga ta’sirini o‘z ichiga olgan mezonlardan iborat bo‘ladi.

Yuqoridagilarga muvofiq Xorazm viloyati iqtisodiyotining barqaror rivojlanish jihatlarini baholaymiz. Bunda aytib o‘tganimizdek, iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik mezonlarni tadqiq qilamiz. Tahlil jarayonida asosiy e’tiborni tegishli mezonlarning ko‘rsatkichlari bo‘yicha shahar va tumanlar holatini o‘rganish maqsadga muofiq deb xisoblayman. Nisbatan ijobiy darajaga ega hududlar holatidan kelib chiqib ortda qolayotgan shahar va tumanlardagi vaziyatni ijobiy darajasini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqamiz.

Mintaqada eng barqaror rivojlangan hudud Urganch shahri bo‘lib, sanoat va xizmatlar sohasining yuqori rivojlanishi, investisiyalar hajmining kattaligi, qurilish sohasining faolligi va tibbiy infratuzilmaning rivojlanganligi bilan ajralib turibdi. Bu holat hududning viloyat markazi sanalganligi hisobiga iqtisodiy va ijtimoiy mezonlarning konsentratsiyasiga egaligidandir. Bunga qarama-qarshi ravishda ekologik jihatdan eng nobarqaror hudud sanaladi.

Shuningdek, yuqori barqarorlik mintaqaning Tuproqqal’a tumanida ham qayd etildi. Unda sanoat mahsulotlari hajmi juda yuqori bo‘lib, so‘nggi yillarda investisiyalar va qurilish ishlari ham jadal kengayib bormoqda. Bu jarayon tumanda yirik investisiya loyihalarining amalga oshirilayotganligi bilan bog‘liq.

O‘rtacha barqaror rivojlanishga ega hududlar qatoriga Xiva shahri, Urganch, Yangibozor, Yangiariq, Xonqa, Shovot, Hazorasp va Gurlan tumanlari kiradi. Ushbu hududlarda iqtisodiy ko‘rsatkichlar nisbatan barqaror, lekin tibbiy va ijtimoiy infratuzilma esa o‘rtacha darajaga ega.

Nisbatan past tumanlar qatorida Bog‘ot, Qo‘shko‘pir va Xiva ajralib turadi. Ushbu hududlarda sanoat, investisiya va xizmatlar sohasi pastligicha qolmoqda. Mazkur hududlarda iqtisodiy faollik asosan qishloq xo‘jaligiga bog‘liq bo‘lib, infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan.

Demak, yuqorida amalga oshirgan tadqiqotlarimiz asosida xulosa qilsak, sanoatlashuv darajasi yuqori hududlarda iqtisodiy va ijtimoiy mezonlarga oid ko‘rsatkichlar barqaror rivojlanishga ega bo‘lmoqda. Hatto, o‘rtacha barqarorlikka ega hududlarda ham ustuvor ko‘rsatkichlar sanoatga va uning salohiyatiga tegishli bo‘lmoqda. Bu esa, mintaqa tumanlarini barqaror rivojlantirishni ta’minlashda sanoat salohiyatini oshirishga e’tibor qaratishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Теоретические концепции устойчивого развития региона // https://ecogosfond.kz/wp-content/uploads/2019/04/206.pdf.
2. Холматов С.Х. Барқарор ривожланиш индикаторлари ва қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш тушунчалари таҳлили // https://cdn.uza.uz/2024/01/12/09/33/4AnX4ja2Uw4P9o8xHk0JCi0jfckTr2qQ.pdf.
3. Магомедова М.М., Курбанова У.А.И., Дахдуева К.Д. Концептуальные основы оценки и моделирования устойчивого развития региона как эколого социально экономической системы (на примере Республики Дагестан) // Юг России: экология, развитие. 2021. Т.16, N3. С. 191-199. DOI:10.18470/1992-1098-2021-3-191-199.
4.Вдовин С.М., Гуськова Н.Д., Неретина Е.А., Иванова И.А. Прогнозирование устойчивости развития региона на основе экономико-математического моделирования // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. №9, 2016. С. 8–27.

5.Индекс производственного потенциала для проведения обоснованной политики // Конференция Организации Объединенных Наций по торговле и развитию.Женева, 19–30 июня 2023 года.